

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
100 sahifa, oktyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI.....	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	



KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASHNING AHOLI
DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI 95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI

Qurbonov Javlonbek Jurabekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida
professor v.b., phd, dotsent.
e-mail: moliyachi@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0002-3550-7296>

Raxmatov Faxriddin Xasanovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni ta'minlashning aholi daromadlarini oshirishdagi ahamiyatli jihatlari, aholi daromadlarini oshirishning korporativ tuzilmalar faoliyati uchun muhim jihatlari tadqiq etilgan, shuningdek, korporativ tuzilmalar faoliyatining aholi daromadlariga ta'sir yo'nalishlari tahlil qilingan va bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion jozibadorlik, aksiya, investor, daromadlilik, daromad, dividend.

Abstract: This article investigates the significant aspects of ensuring investment attractiveness in corporate structures for increasing household incomes, as well as the important aspects of increasing household incomes for corporate activities. Additionally, it analyzes the ways in which corporate structures influence household incomes and develops scientific conclusions on this matter.

Keywords: investment, investment attractiveness, shares, investor, profitability, income, dividend.

Аннотация: В статье исследованы важные аспекты обеспечения инвестиционной привлекательности в корпоративных структурах в повышении доходов населения, важные аспекты повышения доходов населения для деятельности корпоративных структур, а также проанализированы направления влияния деятельности корпоративных структур на доходы населения и разработаны научные выводы.

Ключевые слова: инвестиция, инвестиционная привлекательность, акция, инвестор, доходность, доход, дивиденд.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlilikini oshirish hamda korporativ tuzilmalar faoliyatini samarali tashkil etish hal etilishi lozim bo'lgan eng ustuvor masalalardan biri bo'lib sanaladi. Boshqa tomondan esa aholi daromadlilikining oshishi ham korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligini ortishi ham mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday sharoitda davlat budjetiga soliqlar daromadlar ortish imkoniyati ham yuzaga keladi. Shuningdek, bozor munosabatlarning rivojlanishi va mamlakatda qo'shimcha qiymatning yaratilishi milliy daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, korporativ tuzilmalarda yuqori malakali xodimlarning mehnat faoliyatini tashkil etilishi, kompaniyaning daromadlarini oshirishga, bu esa o'z navbatida kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli quyida mamlakatimiz miqyosida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish aholi daromadlarini oshirishda va kompaniya rivojlanishiga taqdir jihatlari yoritishda quyida alohida e'tibor qaratamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.N.Boboxojayev tomonidan tayyorlangan ilmiy tadqiqot ishida mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, aholi daromadlarining so'nggi yillardagi o'zgarish tendensiyalari, bu jarayonda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar tadqiq etilgan. Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlilik darajasini 3 ta guruhlar doirasida tahlil qilishning ahamiyatli jihatlari hamda

aholining qishloq joylardagi natura ko'rinishidagi daromadlari tadqiq etilganligini va bu bo'yicha mualliflik ilmiy xulosalarini bayon etganliklarini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari tadqiqot ishida Andijon viloyati tuman va shaharlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ishlab chiqarish hajmi bo'yicha daromad darajasi o'rganilgan [1].

N.B.Ergasheva tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida esa aholi daromadlari va uning tarkibi nazariy jihatdan o'rganilgan, turmush farovonligi va daromadlar darajasi mutanosibligi tadqiq qilingan. Shuningdek, aholi daromadlarining shakllanishi va farqlanish darajasini kamaytirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilib, munosib turmush darajasini ta'minlashning zamonaviy iqtisodiy vositalar bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Bunda O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi umumiy va real daromadlarining o'zgarish salmog'i tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin [2].

F.Y.Tuxtarova tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolada aholi daromadlarini oshirishning asosiy usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hamda jahonning ilg'or rivojlangan mamlakatlarining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan tajribalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb omili sifatida kambag'allik darajasi va aholi turmush darajasi ko'zda tutilgan va tahlil qilingan [3].

X.U.Po'latov va M.Toyirova tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish, dividend siyosatini samarali tashkil etish orqali amalga oshirish mumkinligi hamda buning natijasida aksiyadorlar daromadlarini oshirish imkoniyati yuzaga kelishi ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilingan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni ta'minlashning aholi daromadlarini oshirishdagi rolini yoritish hamda ularning bog'liqligini o'zaro tahlil qilishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, gorizont va vertikal tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ tuzilmalar faoliyatini tashkil etish ham davlat uchun ham aholi iqtisodiy farovonligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki korporativ tuzilmalar iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulotlar hajmini oshirishda, milliy daromadlarni maksimallashtirishda, mamlakatning eksport salohiyati oshirishda hamda aholi uchun yangi ish o'rinlarini tashkil etishda muhim dastag bo'lib hisoblanadi. Boshqa tomondan esa, aholining xizmat ko'rsatish sifatida korporativ tuzilmalarda mehnat faoliyatini tashkil etish orqali daromadlarini oshirish imkoniyati yaratilsa, investor sifatida esa daromadlarini maksimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Korporativ tuzilmalarda aholi uchun nisbatan olganda qiymat yaratishda ishtirok etish imkoniyati yuqoriroq baholanishi, mehnat unumdorligini oshirishga hamda oylik daromadlarini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Aholining investor sifatida korporativ tuzilmalar faoliyatida ishtirok etishida esa bozorni o'rganish hamda o'z o'rniga ega bo'lish yo'lida amalga oshiriladigan xarajatlarni minimallashtirish hamda boshqaruv bo'yicha xarajatlar tejamkorligiga erishish imkoniyati mavjud bo'ladi. Agarda korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligi yuqori bo'lsa, mazkur imkoniyatlar yanada oshishi va aholi daromadlari yanada ortishi mumkin.

Investitsion jozibador korporativ tuzilmalar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida nafaqat ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, balki xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va jamiyat hayotida turli daromad manbalarini shakllantirish orqali ham bevosita, ham bilvosita aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, korporativ tuzilmalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga intilganida, bu tabiiy ravishda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Yangi ish o'rinlarining ochilishi esa, bir tomondan, ishsizlik darajasini kamaytiradi, ikkinchi tomondan, aholining mehnat bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Ayniqsa, malakali, tajribali va yuqori bilimga ega kadrlarning jalb qilinishi korporativ tuzilmalar samaradorligini oshiradi, ularning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi va uzoq muddatda barqaror rivojlanishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, korporativ tuzilmalar tomonidan ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnologiyalarni tatbiq etish, sifat menejmenti tizimlarini qo'llash va muntazam nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish ularning faoliyatida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu jarayon ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish bilan birga, ularga malakasiga mos va raqobatbardosh ish haqi to'lash imkonini beradi. Natijada aholining xarid qobiliyati ortadi, turmush darajasi yaxshilanadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, korporativ tuzilmalar kapital bozorlarida faol ishtirok etishi orqali aholi uchun qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Jumladan, aksiyalarning joylashtirilishi natijasida aholiga dividend olish imkoniyati yaratiladi, shuningdek, ularni bozor sharoitida sotish orqali kapital daromad olish mumkin bo'ladi.



Shu tarzda, oddiy fuqarolar ham kapital bozoridagi faoliyatdan foyda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Obligatsiyalarni joylashtirish esa, aholiga foizli daromad olish imkoniyatini beradi, hamda ular ikkilamchi bozorda sotilganda qo'shimcha daromad manbai sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon moliyaviy savodxonlikni oshiradi, aholining investitsiyaga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni jamg'armalarni iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirishga undaydi.

1-jadval. Korporativ tuzilmalar faoliyatining aholi daromadlariga ta'sir yo'nalishlari

№	Yo'nalish	Izohlar
1	Yangi ish o'rinlari yaratish	Investitsion jozibador korporativ tuzilmalar ishlab chiqarish quvvatlarini doimo kengaytirishga harakat qiladi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantiradi va natijada bir qancha yangi ish o'rinlarini yaratishga erishadi. Boshqa tomondan malakali, tajribali va taniqli xodimlarning ishga olinishi ham korporativ tuzilamalarning kelgusidagi investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.
2	Ish haqi va mehnat unumdorligini oshirish	Korporativ tuzilmalar yangi texnologiyalarni joriy etishi, sifat menejmentini joriy etish, uzluksiz nazorat tizimini joriy qilinishi korporativ tuzilmalar faoliyat samaradorligini oshiradi. Buning natijada ishchi va xodimlarning mehnat unumdorligi oshib, malakasiga mos ravishda yuqori ish haqi to'lash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa korporativ tuzilmada mehnat faoliyatini yuritayotgan aholining xarid qobiliyatini oshiradi va turmush darajasini yaxshilaydi.
3	Aksiya bo'yicha daromadlarni oshirish	Korporativ tuzilmalar tomonidan kapital bozoriga aksiyalarning joylashtirilishi aholining aksiya bo'yicha dividend olish hamda bozorda aksiyalar oldi-sotdisi natijasida daromad olish imkoniyatini yaratadi.
4	Obligatsiya bo'yicha daromadlarini oshirish	Korporativ tuzilmalar tomonidan kapital bozoriga obligatsiyalarning joylashtirilishi aholining obligatsiya bo'yicha foizli daromad olish hamda bozorda ularni oldi-sotdisi natijasida daromad olish imkoniyatini yaratadi.
5	Hududiy rivojlanish	Hududlarda faoliyat yuritayotgan investitsion jozibadorligi yuqori korporativ tuzilmalarning mahsulotlari xaridorgir bo'ladi. Bunday sharoitda hududdagi aholining ushbu mahsulotlarni sotib olish hamda tijrat maqsadlarida foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa ularning qo'shimcha daromad olish imkoniyatini oshiradi.
6	Soliq tushumlari orqali bilvosita daromadlarni oshirish	Yirik korporativ tuzilmalar davlat byudjetiga katta miqdorda soliq va majburiy to'lovlarni to'laydi. Ushbu mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, pensiya va nafaqa tizimlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Shu tariqa, korporativ tuzilmalar bilvosita barcha aholining daromadlariga ta'sir ko'rsatadi.

Manba: Iqtisodiy adabiyotlar asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Hududiy rivojlanish ham korporativ tuzilmalar faoliyatining muhim natijalaridan biridir. Investitsion jozibadorligi yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalar faoliyat yuritayotgan hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat xaridorgir bo'ladi, balki mahalliy aholi uchun qo'shimcha savdo va xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini ham yaratadi. Shu yo'sinda, hudud aholisi ushbu mahsulotlarni sotib olish, ularni qayta ishlash yoki tijrat maqsadlarida foydalanish orqali qo'shimcha daromad olish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi va mahalliy aholi turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, yirik korporativ tuzilmalar faoliyati davlat byudjetiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular tomonidan to'lanadigan soliqlar, majburiy to'lovlar va turli yig'imlar davlatning ijtimoiy sohalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Soliq tushumlari ta'lim, sog'liqni saqlash, pensiya va nafaqa tizimlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi, bu esa butun aholining bilvosita daromadlariga va ijtimoiy himoya tizimlarining mustahkamlanishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, investitsion jozibador korporativ tuzilmalar nafaqat o'zining moliyaviy va ishlab chiqarish natijalari orqali, balki yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat unumdorligi va ish haqlarini oshirish, kapital bozorida imkoniyatlar yaratish, hududiy rivojlanishga hissa qo'shish va soliqlar orqali davlat ijtimoiy majburiyatlarini moliyalashtirish orqali ham aholining umumiy daromadlariga va turmush darajasiga bevosita va bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlarimiz doirasida ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy xulosalarni keltirib o'tamiz:

Korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi kelgusida korporativ tuzilmalarda faoliyat yuritayotgan kishilarning daromadlari oshishiga va aksiyadorlarning aksiyalar bo'yicha daromadlarining ortishiga zamin yaratadi;



Korporativ tuzilmalarda mehnat faoliyatini tashkil etuvchi ishchi va xodimlarning malaka va tajribalarining ortishi kompaniya investitsion jozibadorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi;

Korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi aholi uchun yangi ish o'rinlar tashkil etishga zamin yaratadi;

Umuman olganda korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni ta'minlash mikro darajada aholi iqtisodiy farovonligini ta'minlasa, makro darajada mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim dastag bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nazirxujayevich, Boboxojayev Bekzod. «Aholi daromadlarining o'zgarish tendensiyalari». Экономика и финансы (Узбекистан) 8 (168) (2023): 11-16.
2. Вахриддиновна, Ergasheva Nafisa. «Aholi daromatlari tarkibidagi o'zgarishlar va turmush farovonligini oshirishning zamonaviy jihatlari.» Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 9 (2024): 345-353.
3. Tuxtarova Feruzaxon Yuldashevna. O'zbekistonda aholi farovonligini oshirish amaliyoti va rivojlanish yo'nalishlari. Journal of innovations in scientific and educational research. Volume-7, Issue-6 (30- June).
4. Marjona, Toyirova. "Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatini samarali tashkil etish masalalari." Journal of marketing, business and management 3.1 (2024): 115-120.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100